

Mehr qolur, muhabbat qolur

Muhammad Yusuf nomidagi
Jamoat fondi



OLTIN QALAM

SENTYABR
2025 YIL
№ 09 (376)

Adabiy-ijtimoiy gazeta

Gazeta 2005 yildan chiqq boshlagan

Oyda bitta son chop etiladi

www.muhammadyusuf.uz

YANGI O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK SHODIYONALARI



Toshkentdagi «Yangi O'zbekiston» bog'ida Mustaqillik kuni munosabati bilan bayram tantanasi bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoev butun xalqimizni, xorijdagi vatandoshlarimizni davlatimiz mustaqilligining 34 yillik shonli sanasi bilan tabrikлади.

Mustaqillik, avvalo, kuchli iqtisodiyot bilan mustahkam. Shu ma'noda, Prezidentimizning nutqida ko'plab muhim natijalar aytib o'tildi.

Prezidentimiz bayramda qatnashayotgan xorijiy davlatlarning elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlab, samarali hamkorlik uchun tashakkur izhor qildi.

So'zining yakunida Shavkat Mirziyoev yurtimizdagi o'zgarishlar davom ettirilishini ta'kidlab, xalqimizni birlik va fidoyilikka da'vat etdi.

Shundan so'ng bayram shodiyonasi katta konsert dasturi bilan davom etdi. Kuy-qo'shiqlarda xalqimizning boy san'ati va qadriyatlari, bugungi shukronalik hissi va kelgusi orzu-intilishlari namoyon bo'ldi. Tantana televidenie va internet orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish etilib, bayram shukuhini barcha hududlarga yetkazdi.

MA'NAVIYAT FIDOYILARI E'TIROF ETILDI

Respublika ma'naviyat va bilan tashkil etilgan ana shunday ma'rifat markazi tomonidan tadbir davomida turli sohalarida istiqbolimizning 34 yilligiga mamlakat rivoji va taraqqiyotida bag'ishlab ko'plab ijodiy-ma'rifiy o'z hissasini qo'shib kelayotgan bir loyihalar, anjumanlar, muloqotlar guruh faollar «Ma'naviyat fidoiysi» o'tkazilmoqda. Markaz tashabbusi ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Ko'krak nishoni respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qilgan va samarali natijalarga erishgan fuqarolarni rag'batlantirishda hissa qo'shgan faollarga beriladi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi asosida mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jara-yonlarida adabiyot, san'at, madaniyat, ma'naviyat ravnaqiga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.



Sahifa internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Ushbu
sonimizda:

4-betda:

Anvar NAMOZOV

KECHIK MARI,
MUHABBATI!

Hikoya

6-betda:

Gao MING

CHEKSIZ UMR

Hikoya

7-betda:

Sherkon QODIRIY

DARDKASH
SHOIR

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

OLMALIQ OKMKDA BAYRAM TANTANALARI



“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ va Olmaliq shahar hokimligi hamkorligida istiqbol ayyomi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Tadbir avvalida soʻz olgan “Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi, senator Abdulla Xursanov barchani davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi bilan muborakbod etib, kombinatda amalga oshirilayotgan investitsiyaviy megaloyihalarning

yurtimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidladi.

Olmaliq shahar hokimi Qobil Xamdamiy ham yurtdoshlarimizni davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi bilan muborakbod etdi.

Shodiyonalar Oʻzbekiston Respublikasi davlat madhiyasi bilan boshlandi.

Bayram tadbirida teatrlashtirilgan “Obod mahallam” musiqiy kompozitsiyasi, “Metal-

lurg” madaniyat saroyi bolalar raqs jamoasining “Baxtiyor bolalik” haqidagi chiqishlari tomoshabinlar tomonidan olqishlar bilan kutib olindi. Katta ekranda namoyish etilgan jadid bobolarimiz vasiyati bayram ishtirokchilarining qalbida vatanparvarlik hissini yanada joʻsh urdirdi.

Tadbir Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qoʻ-



riqlash qoʻshinlari qoʻmondonligining Olmaliq shahridagi harbiy qism askarlari va olmaliqlik sportchilarning chiqishi bilan davom etdi.

Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Abdurashid Yoʻldoshev, xonanda Mashhura Ergasheva, “VIA Marokand” guruhi, Oʻzbekiston xalq artisti Gʻulomjon Yoqubovlar ijrosidagi eng goʻzal qoʻshiqlar hamshaharlarimiz va konchi-metallurqlar uchun ajoyib bayram sovgʻasi boʻldi.

OKMK matbuot xizmati

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTIDA



20-sentyabr kuni Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida respublikamizdagi pedagogika oliy taʼlim muassasalari ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektorlari kengashining ikkinchi yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirining “Pedagogika oliy taʼlim muassasalarining nizomi va tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash hamda prorektorlar kengashlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida”gi buyrugʻida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida tashkil

etilgan tadbirida barcha pedagogika oliy taʼlim muassasalari prorektorlari onlayn formatda ishtirok etdi.

Yigʻilish kun tartibiga muvofiq, dastlab institutning ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori Qanishbay Seytnazarov institutda ilmiy-innovatsion ishlarning hozirgi holati va istiqbollari boʻyicha maʼruza qildi.

Tadbir yakunida prorektor Qanishbay Seytnazarov oʻz ilmiy rahbarligida amalga oshirilayotgan ilmiy-innovatsion loyihalarni mehmonlarga tanishtirdi.

NukusDPI matbuot xizmati

“ULUGʻBEK” JAMGʻARMASIDA KATTA TADBIRLAR

Isteʼdodli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash “Ulugʻbek” jamgʻarmasi, Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamkorligida Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga bagʻishlangan “Yangi Oʻzbekistonda Inson aziz – xotira muqaddas”, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida harbiylar va ichki ishlar vazirligi kinologiya boʻlimi xodimlarining koʻrgazmali chiqishlari va “Sadoqat” deb nomlangan maʼrifiy-madaniy xotirlash tadbiri boʻlib oʻtdi.

Ushbu tadbirida “Qatagʻon”da jabr koʻrgan va uni “Jasorati va sadoqati” bilan yengib chiqqan oilalar vakillari, ularning farzandlari hamda Oʻzbekiston Respublikasining taniqli jamoat arboblari, shoir va yozuvchilar, sanʼat-

korlar, deputatlar, olimlar, harbiylar va iqtidorli yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbirida Oʻzbekiston qaxramoni Munajat Yulchiyeva, Oʻzbekiston xalq artisti Xayrulla Lutfullaiyev, xonanda Zohida Umarova, Mudofaa vazirligi ansambli, “Nozanin” milliy bolalar raqs ansambli oʻz chiqishlari bilan tadbir ishtirokchilarini tabriklashdi.

Jamgʻarma matbuot xizmati





ISTIQLOL — BARCHA SA'Y-HARAKATLARIMIZ VA YUTUQLARIMIZ POYDEVORI

Jonajon O'zbekistonimiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritganiga va o'z taraqqiyot yo'lga o'tganiga 34 yil to'ldi. Bu dorilomon kunlar ne-ne jadid bobolarimizning asriy orzusi edi. Inson baxtli bo'lishi uchun erkin bo'lishi kerak. Demak, biz eng avvalo, Istiqlolning mazmun-mohiyatini anglab olishimiz va yosh avlodga uning ahamiyatini yetkazishimiz zarur bo'ladi.

Qayd etish joiz, mamlakatimizda mustaqillik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Istiqlol tufayli mulkka egalik va uning huquqiy asoslari shakllantirildi. Xalqimizning azaliy hayot tarzidan chuqur o'rin olgan urf-odatlar va an'analari Istiqlol tufayli qayta jonlandi.

Ma'naviy merosimizning durdonalari ona tilimizda nashr etila boshlandi. Buyuk tariximiz qayta tiklanib, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy va bebaho meros nafaqat xalqimiz, balki o'zga millatlar tomonidan ham keng o'rganilmoqda.

Mamlakatni modernizatsiya qilish, bu jarayonda parlament va siyosiy partiyalarning rolini, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli demokratik islohotlar jadal amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari tomonidan demokratiyaning asosiy talabi bo'lgan inson huquqlari va

qonuniy manfaatlarini, so'z va vijdon erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Bilamizki, inson Vatan tuyg'usi bilan yashashi, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtini sevishi va ardoqlashi, yur taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olishi eng oliy

kabi bobokalonlarimizning davomchilarini tarbiyalay boshladik.

Ming shukrki, biz Istiqlol tufayli o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqdamiz.



tuyg'u hisoblanadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari orqali Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy

Bularning barchasi "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" degan ezgu da'vat asosida amalga oshirilmoqda. Respublikamiz mustaqilligining 34

yilligini keng nishonlash jonajon Vatanimizda inson qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururining nechog'lik ustun qo'yilganligidan, yurtimiz tinchlik va barqarorlikka erishilganligidan, davlatimiz sargardamlarining daxlsizligi ta'minlanganligidan hamda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning mustahkamlanganligidan darak berishini unutmasligimiz darkor.

Vatan, millat va xalq tushunchalari odamzod uchun eng oliy qadriyat. Ushbu uch tushuncha insonning ma'naviy-axloqiy mezonini, fidoyilik tamsili va faol fuqarolik pozitsiyasini belgilaydi. Ular alohida qaralsa ham, bir-biriga uzviy bog'langan yagona uyg'unlik — uch birlik sifatida jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlik va davlat barqarorligining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Vatan — borliq, u tabiat va jamiyatning uzviy birligi bilan bog'liq bo'lsa, millat — boylik, u tili, qadriyatlari, urf-odat, an'analari bilan o'zligini saqlay olish, xalq esa — borlik, ya'ni, mavjudlik mezonini mushtarak maqsadlar bilan istiqbol sari intiluvchi kuch. Vatan obod bo'lsa buyuk millat yuksaladi va xalq degan qudrat mustahkamlanadi.

Mansur YUNUS,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari doktori

MUSTAQILLIK BAYRAMINING 34 YILLIGI MUBORAK BO'LSIN!

Mamlakat mustaqilligi bayrami bashariy-insoniy bayramlarning eng ulug'laridan sanaladi.

Ya'ni bayramlar ikki turli bo'ladi:

1) Ilohiy bayramlar, Alloh taolo O'z yaratmishlariga bayram qilib lutf etgan bayramlar: bular Qurbon va Ramazon hayitlaridir;

2) insoniy bayramlar, bular insonlik sharafiga ulug'lash, insonlarni qadrlash, jamiyat hayotiga mazmun berish va davlat tasarrufi mavjudligini bildirish maqsadida inson aqlu zakovati bilan joriy qilingan bayramlardir.

Bir mamlakatning mustamlaka zulmidan xalos topib, mustaqil

bo'lishi, darhaqiqat, buyuk tarixiy hodisadir.

Ulug' zotlar ta'kidiga ko'ra, insonga insonlik sharafiga dalolat beradigan to'rt qadriyat bor:

Birinchisi, har bir inson o'z erk va ixtiyoriga ega bo'lmog'i lozim.

Ikkinchisi, shar'iy yoki qonuniy kasb-kor orqali topgan molu dunyosi, halol mehnatining mahsuli o'laroq, o'z haqqi, o'z mulki bo'lmog'i lozim.

Uchinchisi, har bir millat o'z haqiqiy onasi bo'lmish Vataniga, tug'ilib o'sgan yurti, otabobosidan meros qolgan diyoriga ega bo'lishi lozim. Ona Vatanini boshqalar tasarrufiga berib qo'yish

insonlarning kechirilmas og'ir jinoyati va xiyonati bo'ladi.

To'rtinchisi, har bir mamlakat xalqi asrlar bo'yi asralib kelayotgan muqaddas diniga sohib bo'lmog'i lozim.

Jamiyatshunos olimlar bu to'rt ne'matga harbiy mudofaa quvvatini ham qo'shganlar va har bir millatning mustaqilligi uning mudofaa quvvatiga ham bog'liq ekanini ta'kidlaganlar.

Sulton Sohibqiron g'oyalariga ko'ra, Vatanning biror parchasini to'liq boshqa xalqlar tasarrufiga berish, yerni boshqa davlat vakillariga mulk qilib sotish, qo'shni davlatlarga tortiq qilish buyuk jinoyatdir.

Bu ishlar butun jahonda tarixlar davomida kechirilmaydigan va hayotda jazosiz qolmaydigan buyuk jinoyat hisoblanib kelgan.

O'zbekistonni kelajak avlodlarga ozod va obod holda topshirish bizning va har bir vatandoshimizning buyuk vazifasidir!

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING 34 YILLIK ANJUMANI XAYRLI VA BARAKOTLI BO'LSIN!

Mirzo KENJABEK
(Mirzo Kenjabekning telegram kanalidan olindi)



(Davomi. Boshi oldingi sonlarda)

– Ishdan keyinmi, biror joyga taklif qil, bolam. Fe'lini bilib olaversang, yaxshimi, deyman-da! Onasini ko'rib, qizini ol, deyishgan. Onasi juda yaxshi ayol.

Yolg'iz qolishni istayotgan Vosilga onasining gaplari hozir yoqmayotgan edi. U shiftga qarab yotgancha Xurshidaning o'hu ko'zlarini ko'z oldiga keltirib, u bilan g'oyibona suhbatlashmoqchi edi. Shirin orzu-xayollar og'ushida uchishni istardi hozir. Ertaga nimalar bo'lishi bilan nechukdir qiziqmas, aniqrog'i, bu haqda o'ylashni sira xohlamasdi.

– Yaxshi, oyi, tushundim, – dedi u.

Ertasi kuni ertalab Vosil o'zini tiyishga qanchalik harakat qilmasin, qabulxonaga birrov bosh suqdi. Xurshida bilan so'rashdi. Uning ko'zlariga yana qarab-qarab oldi. Keyin xush kayfiyatda o'zlarining xonasiga yo'naldi. Kechgacha g'ayrat bilan ishladi. Bir necha marta qabulxona oldiga borib, qiya eshikdan Xurshidaga termilib ham keldi.

Qo'l telefoni jiringlaganida Vosil yot raqamni ko'rib, hayron bo'ldi.

– Allo, assalomu alaykum, Vosiljon, – eshitildi begona ayolning ovozi. – Bu, men – Durdonaning yangasiman. Yaxshimisiz? Durдона bilan ishxonangiz yonidan o'tayotgandik... Shu yerdamisiz? Bo'lajak qarindoshlarni bir ko'rib qo'yaylik, desam, Durдона sira ko'nmayapti.

Vosil shoshib qoldi. Xuddi o'zining ulkan siri haqida boshqalar eshitib turgandek, atrofiga olazarak qarab oldi. Xonada o'zidan tashqari Kamolov ham qolgan, u Vosilga bezbetlarcha qarab o'tirardi. Vosil yo'lakka chiqdi.

– Ha, ishxonada edim, – dedi u o'zini xotirjam tutishga urinib. – Birozdan keyin ketaman. Durдона yaxshimi, salom aytib qo'ying. Bugun... zudlik bilan qiladigan ishlarim bor edi, do'stlar bilan. O'zi... ertaga Durdonani... taklif qilmoqchi edim.

Telefondan hadeganda javob kelavermadi.

– Yaxshi, – degan ovoz keldi xiyol o'tib, – bezovta qilgan bo'lsak, uzr.

Bu gap samimiy aytildimi, istehzo bilanmi, Vosil tushunolmay qoldi. Uning kayfiyati ham, ruhiyati ham tushdi.

Birozdan so'ng Kamolov ish stolini erinmay yig'ishtirib, Vosil bilan xayrlashdi. Eshikdan chiqish

oldidan negadir unga g'alati qarab qo'ydi.

Vosil shartta qabulxona raqamini terdi. Go'shakdan qo'ng'iroqdek ovoz eshitilgach, entikdi:

– Xurshida, Vosilman. Hali ketmaysizmi?

– Birozdan so'ng, nimaydi? – so'radi Xurshida.

Vosil kulib javob berdi:


– Bugun qorbo'ron o'ynagingiz kelmayaptimi?

– Shamollab qolmang tag'in.

– Siz uchun shamollasam, nima qilibdi? – Vosil bu gapni zo'rg'a aytdi...

Ammo, baribir, bugun kechagidek bo'lmadi. Vosilning o'ta hayajonlanganimi yoki ich-etini kemirayotgan xavotirmi, nimadir uni emin-erkin harakatlardan to'sib

Anvar Namozov



Hikoya

KECHIR MENI, MUHABBAT!

turardi. Xurshida esa o'zgarmagan, hanuz qiyqirib, qor otishni davom ettirardi.

Bekatda boshqa odam yo'q. Vosil beixtiyor Xurshidaga qo'l cho'zdi:

– Bering, isitib qo'yaman.

Xurshida birinchi marta ko'zlarini olib qochdi:

– Yo'-o'-o'-q, qo'ysangiz-chi!

Vosil o'zini mardonavor sezib, Xurshidaning qo'llaridan mahkam ushladi-da, og'zi oldiga keltirib, "kuh"lay boshladi. "Men sevib qoldim, – dedi ichida. – Xurshida, sizni sevib qoldim".

Ayni shu paytda Vosilning telefoni jiringlab qoldi.

– Telefoningiz, – dedi Xurshida qo'lini beozor tortqilab.

Vosil uning qo'llarini qo'yib yubormadi, telefonini ham olmadi. "Kim qo'ng'iroq qilyapti ekan? – deb o'yladi u. – Durdonamikan? Qo'ymaydi, shekilli".

– Bo'ldi, qo'lim yonib ketadi, – Xurshida shunday deb qo'llarini chaqqonlik bilan tortib oldi. – Telefongayam javob bermadingiz.

– Uydan qo'ng'iroq qilishgandir, – dedi Vosil.

Uzoqdan avtobus ko'rindi.

– Nihoyat karvonimiz kelyapti, – kuldi Xurshida.

Vosil ranjigan bo'ldi:

– Namuncha shoshilasiz!

Shu payt yana uning telefoni jiringladi. "Durдона, – o'yladi Vosil. – Bu qiz tinch qo'ymaydi". Keyin qo'ng'iroq qilinayotgan raqamga qarab, yashil tugmachani bosdi:

– Ha, oyi, nima gap?

Telefondan onasining ovozi keldi:

– Qayerdasan, Vosil?

– Bekatda, oyi, uyga

kayfiyatini bilishni xohlasa-da, tiliga jo'yali gap kelavermadi.

– Nega o'ychan bo'lib qoldingiz? – deb so'radi, xolos.

– Menmi? – kulimsiradi Xurshida. – O'zingiz ham nimalarnidir o'ylayapsiz-ku! Tinchlikmi?

– Tinchlik-tinchlik, – Vosil ham jilmayishga urindi. – Oyim, shunchaki, qo'ng'iroq qilibdilar.

– Xavotirga tushgandirlar, – yana kuldi Xurshida. – Endi ishdan so'ng o'z vaqtida uyga qayting.

Vosil uning husniga to'ymay tikilarkan, so'radi:

– O'zingiz-chi?

– Menmi, men hali ishga to'liq kirisholganimcha yo'q, – dona-dona qilib gapirdi Xurshida xotirjam tarzda. – O'rganguncha kech qaytib turaman.

"Bunchalar sodda" – dedi ichida Vosil.

– Oyingiz xavotirlanmaydimi?

Xurshida kuldi:

– Yosh bola emasman-ku!

– Men sizni olib qochib ketsam-chi? – Vosil bu gapni qanday aytdi, o'zi ham bilmay qoldi. U dilidagini tiliga chiqargan edi. O'zi hayajonlanib qoldi. Mulzam bo'ldi. Nazarida Xurshidaning beradigan javobi uni xijolatdan qutqarib qolishi mumkin edi. "Xurshida menga ishonyapti, men esa haddimni bilmayapman", deb ham o'yladi keyin. Qizning javobini intiqlik bilan kutdi. Xurshida hadeganda javob qaytarmadi. Yo Vosilning gapiga e'tibor qilmadi, yo xafa bo'ldi. Uning bekatda turgan paytidagi xush kayfiyatidan asar ham qolmagandek tuyuldi Vosilga.

– Xafa qildim-a, Xurshida? – dedi Vosil astoydil.

– Nima? – aftidan qizning xayoli boshqa joyda ekan, shekilli, tushunmay so'radi. – Nima?

– Eshitmagan bo'lsangiz, yanayam yaxshi.

Avtobus Xurshida tushadigan bekatga yaqinlashgan edi. Xurshida taraddudlanib qoldi.

– Men ham tushaman, – dedi Vosil. – Sizni kuzatib qo'yaman.

Xurshida samimiy javob qildi:

– Ovora bo'lmang, o'zim ketaman.

– Xurshida...

– Oyingiz kutyaptilar, – eslatdi Xurshida. – Xo'p, xayr...

Vosil uyga irg'ishlab borgisi keldi. U Xurshidani ko'z oldidan ketkazolmas, ammo shu topda Durдона bilan bog'liq o'y-xayol ham miyasini parmalaridi. "Nega bunday bo'ldi? – o'yladi u. – Nima uchun shoshirishdi?"

(Davomi keyingi sonda)



VATAN CHEGARASI YURAKDAN O'TGAN

Yurak shu – Vatan deb gupuradi qon,
Yurak shu – tomirda aylanadi shon,
Ogoh bo'l, dushmanga bo'lmasin nishon,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.

Aslo ko'tarilmas taslimga qo'lim,
Dushmanning poyida topmasman o'lim,
Madhini aytarman ko'ksimda qo'lim,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.

Yurak tomirlari shiddatga xumor,
Bamisli ko'ksimda osilgan tumor,
Unda muhabbatning xaritasi bor,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.

Jigarim, ko'zingda doim cho'g' bo'lsin,
Sening safdoshing ko'p, ko'ngling to'q bo'lsin,
O'z tiling – quroling, so'zing – o'q bo'lsin,
Vatan o'chmagaydir hech bir tilakdan,
Vatan chegarasi o'tgan yurakdan.

BILAMAN, SIZ...

Bog'laring bor, daraxtlarni quchgim kelsa,
Tog'laring bor, qanot qoqib uchgim kelsa,
Buloqlardan bir zilol suv ichgim kelsa,
Qo'llaring kosa tutib turgaydirlar,
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirlar.

Bug'doyzordan xirmonini uydirganlar,
Yurtin suyib o'zini ham suydiganlar,
Mehridan bir yuksak Vatan qurdirganlar,
"Bu imorat – bizning bino" degaydirlar,
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirlar.

Qishlog'imdan ketib, yursam shaharlarda,
Sigir haydab ko'rinmasam saharlarda,
Saratonda cho'milmasam anhorlarda,
Qayerlarda yuribsan, deb tergaydirlar,
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirlar.

O'zbekiston – tabiatda buyuk asar,
Bir-biridan ta'm o'g'irlar qovun, asal,
Ariqlarda suvning shashti pasaysa sal...
Nihollarga ko'z yoshingiz bergaydirlar,
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirlar.

Oq qog'ozga to'kay desam bor hislarim,
Tugamadi baytlarimu bahslarim,
Ey, do'stlarim, sizga ortgan havaslarim,
Sen ham bizday sevasanmi, degaydirlar,
Bilaman, siz Vatanni chin sevgaydirlar.

ONA TILIMGA

Otamning merosi, tilim, o'zingsan,
Onamning siymosi, tilim, o'zingsan.

Millatning ma'nosin topganman sendan,
Hurriyat havosin totganman sendan.

O'rxun-Yeniseyda ko'z ochgan tilim,
Ilk bor Qoshg'ariyda yuz ochgan tilim.

Qadim bitiklarga yetgan ildizing,
Ko'kda yaraqlagan bugun yulduzing.

Quvvatga to'lmog'ing Navoiydandir.
Dilga tug' bo'lmog'ing Navoiydandir.

Hazratning nazmidan to'kilgan durlar,
Mangu xazinangga baxsh etgan nurlar.

Quyoshdek balqiding fikr, onglarda,
G'olib o'tmoqdasan asriy janglardan.

Boburning jomida so'z jarangi bor,
Munis ohang birla ajib rangi bor.

Mashrabim so'z bilan haqning zorimi,
Sho'irni chorlagan so'zning dorimi.

Nodira to'xtamas nega yig'idan,
Qoni to'kilganmi she'rning tig'idan.

Sen ulkan kemasan so'z ummonida,
Gavhar tersam qani dil xirmoniga.

Yuragimning ko'rkam libosi, o'zing,
Ma'nosi, navosi, a'losi o'zing.

Bolam davom aylar ota so'zimni,
Sensiz bosolmagay mening izimni.

Tilim, sen xalqimning shamchirog'i bo'l,
Uyg'onsin, beshikning qo'ng'irog'i bo'l.

XALQIM

Xalqim,
Bardam bo'lg'in, yoningda borman,
Bejiz chorlamaysan, ko'nglingda borman.
Yillaringda borman, kuningda borman,
Oylaringda borman, siyratingdaman.

Ko'ngling farzandlarda, qo'llaring ishda,
Elga xizmat deysan yozdami-qishda.
Sen hormay ishlagan dala-yu dashtda,
Soylaringda borman, g'ayratingdaman.

Xalqim,
Darding olay ko'ksimni ochib,
Yelkamni tutayin mehrimni sohib,
Borsam, uylaringda darvozang ochiq,
Choylaringda borman, suhbatingdaman.

Tinmaysan mehmonga himmat ko'rsatib,
Ko'ngilga yetganda she'rning fursati,
Poygakda o'tirib, o'qib to'rt satr,
Uylaringda borman, izzatingdaman.

Xalqim,
Qulluq qilsam, qullug'im arzir,
Mingta she'r yozsam ham uzilmas qarzim,
Sen aytgan tilakda, sen qilgan orzu –
O'ylaringda borman, zahmatingdaman.

Teraklaring askar qatorasiga,
O'g'lonlaring o'xshar tog' qoyasiga,
Otameros yurtning himoyasiga
Shaylaringda borman, quvvatingdaman.

Xalqim,
Erk ko'nglingga baxsh etdi olov,
Dilda darding bo'lsa, bilmasin biron.
Ikki og'iz tilak, bir osham palov –
To'ylaringda borman, xizmatingdaman.



Shodi OTAMUROD

Xalqim,
Gullab-yashna, sen ulkan daraxt,
Uzilib tushmasin sendagi bir band.
O'zbekiston degich jannatga monand
Joylaringda borman, Davlatingdaman.

QIZIMGA

Lolasi sen bo'lding mendek qoyaning,
Bog'imning xush nasmi, shabbodasi sen.
Ojiz qalamimga soching soyami,
Mehr degan so'zning ifodasi – sen.

Boshim ko'kka yetgan tug'ilganingda,
Atak-chechak payting suydim, suyadim.
Yo'lingdan tosh terdim yiqilganingda,
Ko'zlardan, so'zlardan seni ayadim.

Olis yo'lga chiqqan katta karvondek
Yorug' manzillarni ko'zlab turibman.
Bag'rimda – palaxmon toshini jondek,
Hozircha qo'limda ushlab turibman.

Ortimdan kelaver, kuchga to'ldim men,
Faqat to'g'ri yo'lda qolar izzinam.
Yo'limning yarmidan o'tib bo'ldim men,
Yo'lning boshidasan hali, qizginam.

SO'Z

Yuragimning maydoniga bargday uchib
So'z keladi iztirobning shamolida.
Boshimdagi ko'hna dunyo sharob ichib,
She'r o'qiydi hayotimning misolida...

Tuyg'ularning ildiziga bolta urmang,
She'rdagi to'kmang titrayotgan yaprog'ini.
So'z – mangudir. Aslo unga kafan qilmang,
Bu dunyoning qonga botgan bayrog'ini.

SHOIRGA

Bilolmadim, egallagansan
Koinotning qaysi joyini.
Yolg'izsan, xayoling parishon,
Ko'p ichmagin uzlat mayini.

Gapirdingmi samoga qarab,
Men ham seni tinglashga shayman.
Qolar bo'lsa she'rda qolsin so'z,
Aslo yerda qolmasin deymen.

Aytgin, shoir, qaysi olamda
Yangramoqda ovozing bekam.
Shu dunyoga kelgan bo'lsang gar,
Borligingni bilayin men ham.



Jahon adabiyoti

Ruhiy kasallik bilan xas-talangan bir bemor kun bo'yi hech nima qilmas, qora plash kiyib olib, qo'lidagi gulli soyabon bilan hovlining qorong'u va nam burchagida o'tirardi. Shu o'tirgan holida kun bo'yi hech qayerga qimirlamasdi. Uni olib ketishga harakat qilishsa ham ularga qarshi chiqmasdi. Lekin shu kiyimini kiyib, gulli soyaboni bilan cho'kkalab o'tirish imkoni tug'ilishi bilanoq, buni qat'iyat bilan bajarardi. Uni tekshirish uchun ko'plab psixiatrlar va mutaxassislar kelishdi, lekin bir necha kunlik urinishlar o'z samarasini bermadi. Shunday qilib, uning tuzalmasligiga barcha amin bo'lib, umidini uzdi. Kunlarning birida, bir psixolog tashrif buyurdi. U bemorga hech qanday savol ham bermadi, shunchaki xuddi o'sha bemor kabi kiyinib olib, unikidek gulli soyabon ushlagancha cho'kkalab u o'tirgan joyga o'tirib oldi. Bu har kuni davom etdi. Oradan bir hafta o'tdi va nihoyat bemor tilga kirdi. U sekingina psixologning oldiga yaqinlashib, past ovoz bilan: "Siz ham qo'ziqorinmisiz?" – deb so'radi.

– Bu men ancha avval eshitgan hazil. Kulgili, shundaymi?

– Men uchun esa kulgili emas.

Bu kabi ishlarni avval men ham qilib ko'rganman. Albatta men psixolog emasman, bemorni davolay olishimga ham ishonchim komil emas. Lekin, uning roziligi bilangina uning fikrini o'rgana olardim...

Aslida, u avval o'qituvchi bo'lib ishlagan, keyin esa birdaniga o'zgarib qolgan edi. Har kuni ovqat yeyish, uxlash, hojatxonaga borishdan tashqari, tosh yoki gullar oldiga cho'kkalab o'tirar, ularni sinchiklab o'rganar, ba'zan ularga qarab egilib pichirlab ham qo'yardi. O'sha paytlar, u qarshisidan nima chiqmasin, bu xoh tosh bo'lsin, xoh gul, u shu qadar qat'iyatli ediki, bir necha yillar davomida shu narsalardan tashqari hech kimga bir og'iz ham so'z aytmedi. Turmush o'rtog'i, farzandlari uning befarqligidan aqlidan ozgudek bo'lishardi.

U bilan muloqotga kirishish uchun qilingan bir necha omadsiz urinishlardan so'ng, uning yonida

u qilayotgan ishlarni xuddi u kabi qilayotgan yana bir odam paydo bo'ldi, u ham bo'lsa men edim. Undan farqli jihatim – qo'limda magnitafon bor edi, xohlagan paytim uni yoqishga shay turardim.

O'sha. 10 kun juda og'ir o'tdi. Bo'sh qoldim deguncha, uni yoniga borib, o'zimni xuddi gullarni, o'simlik-u daraxtlarni, toshlarni o'rganayotgandek tutardim.

Yarim oy o'tdi, nihoyat meni borligimni payqadi va xuddi endigina sezgandek hayratlandi. U: "Nima qilayapsan?" – deb savol berdi.

Gao MING

CHEKSIZ UMR

Hikoya



Men ham uni endigina payqagandek: – Ha? Nega senga aytishim kerak? O'zing nima qilayapsan? – dedim.

Unga bunday savol berishimni kutmagandi, qayta so'radi:

– Sen nima qilyapsan?

– Senga aytmayman, – deya qarshidagi o'simlikka o'zimni qiziqqandek qilib ko'rsatishda davom etdim.

U menga yanada yaqinroq keldi va o'sha o'tga tikilib qaradi.

Yanada sirliroq ko'rinish uchun o'tni qo'lim bilan to'sib oldim.

U boshini ko'tarib menga qaradi va:

– Men buni avval ham ko'rganman, bu o'tning unchalik ham ahamiyatli joyi yo'q. Anavi yerda yaxshiroqlari bor".

– Sen tushunmayapsan, bu boshqacha.

Hayratga tushib so'rashda davom etdi:

– Nimasi boshqacha?

– Senga aytmayman.

– Agar sen menga nimasi o'zgachaligini aytsang, men senga sen bilmagan narsani aytaman.

– Rostdanmi? Lekin sen biladiganing, shubhasiz, menikidan afzal emas.

Uning yuz ifodasi xuddi yosh bolanikidek edi, kulishdan o'zini zo'rg'a tiyardi:

– Aniq afsuslanmaysiz, mening biladigan narsam juda katta sir. Shubhasiz, siznikidan yaxshiroq!

etardim.

Maqtanish ohangida gapini boshladi:

– Hayotingiz yuqori darajadagi hayot deb hisoblanishi uchun ham juda past darajada aslida.

– Yuqori darajali hayot qanday bo'ladi?

Sirli jilmayib:

– Meni yaxshilab tingla, qo'rqib ketma, – dedi.

Shubha aralash nigoh bilan unga tikildim.

Menga yerga o'tirishimga imo qilib gapida davom etdi: "Biz inson ekanligimizni bilasiz, to'g'rimi?"

– ...

– Avvallari e'tibor bermagan edim, keyin esa insonlar yetarli darajada rivojlanmaganligini sezib qoldim. Ko'plab olimlar yerga o'xshash sayyoralarni qidirayotganini bilasiz, shundaymi? Nima uchun? Chunki insonga o'xshash mavjudotni topish uchun!

– Men bu haqida bilardim.

Kulib yubordi:

– Shoshmasangchi, meni eshit. Avvaliga nima uchun insonga o'xshash mavjudotni qidirishayotganini tushunmadim. Balki boshqa sayyoradagi mavjudotlarning barchasi robotdir, balki ularning barchasi kremniy kimyoviy elementidan yaratilgan hayotda yashar... Bilasanmi, insonlar qaysi element asosida qurilgan hayotda yashaydi?

– Uglerod, buni hamma biladi!

– Qoyil! Sen ko'p narsa bilar ekansan. Avvaliga o'sha olimlarni axmoq deb o'yladim. Tirik mavjudot deb atash uchun ular yerdagi mavjudotlarga albatta o'xshash bo'lishi kerakmi? G'irt axmoqlik. Lekin, keyinroq ular axmoq emasligini tushunib yetdim. Agar o'sha o'zga sayyoraliklar insonlardek bo'lmasa, kisloroddan nafas olmasa, uglevod yemasa, plastiklar bilangina oziqlansa, u holda, ular bilan muloqot qilish qiyin bo'ladi. Demak, olimlar axmoq emas. Ular avval yerga o'xshash muhitni topadilar, barcha kisloroddan nafas olib, suv ichsa, ana o'shanda o'zaro umumiylik bo'ladi. Hayotning mana shu xususiyatlari bir xil bo'lsagina, muloqotga kirishsa bo'ladi, to'g'rimi?

Xitoy tilidan Madinaxon Sobirova tarjimai

(Davomi keyingi sonda)



DARDKASH SHOIR

Bir yili yozda Ibn Sino nomidagi 1-sonli shahar kasalxonasi yonidagi mahallada yashovchi Mirziyod ismli qadrdonimizning eski uyini qayta ta'mirlash uchun meni taklif etishdi. Men u yerga borib ishini ko'zdan kechirdim. Mehnat haqini kelishib, ertasiga Chorsudagi mardikor bozoridan ikkita yordamchi ustalarni oldim-da, ishini boshlab yubordim. Menga qarashadigan bu ustalar buxorolik juda chaqqon va mehnatkash yigitlar ekan. Uy ta'mirining bir qismini tugatib bo'lgach, yordamchi ustalar bir haftaga uylariga ketishdi. Ustalar qaytib kelishgach, biri menga:

– Sherkon aka, shoir Muhammad Yusuf bir she'rini sizning maslahatingiz bilan yozganmi? Hali shunaqa odam-misiz? – deb so'rab qoldi dabdurstdan. Men avvaliga nima deyishni bilmay kalovlandim. Bir oz o'ylanib:

– Yo'g'-ye, men kim bo'libmanki, shunday mashhur shoirga aql o'rgat-sam. Keyin men she'riyatdan ancha uzoq odamman, – dedim. O'sha usta:

– Axir, mana, uning o'zi gazetada aytibdi-ku?! – dedi. Men:

– Bo'lmagan gap. Hazillashgandir, – dedim-da ishingga berildim.

Hozir o'sha kunlarni eslab, beixtiyor Muhammad aka bilan kechgan voqealar birin-ketin ko'z oldimdan o'ta boshladi.

O'sha yillari bobomiz Abdulla Qodiriy xotirasiga atab o'tkazilgan adabiy kechalar va tadbirlarga ustoz Tohir Malik bosh-qosh bo'lardi. Unda albatta Muhammad aka yoki ajoyib qo'shiqchi Mahmud Azimov taklif etilardi. Men hozir Muhammad aka bilan qachon va qayerda uchrashganimni aniq eslay olmayman. Bir kuni xonada (Men u vaqtda Abdulla Qodiriy nomli jamg'armada ishlardim. Biz Beshyog'och bozori yaqinida joylashgan yangi qurilgan Yozuvchilar uyi binosida o'tirardik.) yolg'iz edim. Oldimga Muhammad aka kirib keldi. Salomlashdik. U kishi: “Eshiting”, deb bir she'r o'qidi. O'qib bo'lgach: “Qalay bo'пти?” deb menga ma'noli qaradi. Men avvaliga dovdirab qoldim. Chunki shunday shoir odam mendan fikr so'rayapti. She'ming oxiri “... Muhammad yaxshi”, deb tugallangan edi. Biroz vaqt o'tgach o'zimga kelib: “Yaxshi bo'пти, Muhammad aka, lekin she'ringizning oxiridagi “Muhammad yaxshi” degan iborasini o'zgartirish kerakmikan? Shaxsan men kimni nazarda tutayotganingizni sezyapman. Lekin o'quvchilar: “Shoir o'zini maqtapti”, demasmikan?” dedim kallamga kelgan fikrni dangal aytib. U kishi:

– Bo'пти, o'ylab ko'raman, – dedi-da, xonadan chiqib ketdi.

Oradan yillar o'tdi. She'r shoirming she'riy to'plamidan joy olib, nashr qilindi. Men o'sha she'rni o'qib ko'rdim. Hozir o'quvchilarning e'tiborini o'sha she'ringa to'liq matniga qaratmoqchiman:

*Ey do'stlarim, dunyoda
Ortda qolgan iz yaxshi,
Bulbuli yo'q bahordan
Qumri to'la kuz yaxshi.
Minnat to'la halvadan
Ayyondagi muz yaxshi,
O'pich ko'rgan paridan
Sepkil toshgan yuz yaxshi,
Ichmasang ham qimiz zo'r,
Quchmasang ham qiz yaxshi.*

*Ey do'stlarim, dunyoda
Ortda qolgon yod yaxshi,
To'qligingda yo'qlagan
Qarindoshdan yot yaxshi,
O'nta nomard do'stingdan
Bitta cho'loq ot yaxshi.*

*Olisdagi oltindan
Quchoqdagi gard yaxshi,
Vafosi yo'q xotindan
Davosi yo'q dard yaxshi,
Dushman bergan g'aznadan
Burda arpa non yaxshi,
Qirg'ta chala mulladan
Bitta musulmon yaxshi.*

Muhammad aka she'rining oxiridagi “...Muhammad” so'zini “Musulmon” so'ziga almashtirgan ekan. Demak, Muhammad aka ba'zida o'zgalarning fikrini ham inobatga oladigan jo'mard ijodkorlardan bo'lgan ekan.

1991 yillar edimi, hozir aniq esimda yo'q. Rahmatli sinfdoshim Olimjon Muhitdinov bir kuni: “Kelinglar, shoir Muhammad Yusufning ijodiy kechasini uyushtiramiz,” degan fikrni o'rta tashladi. Biz rozi bo'ldik. Ustozimiz Baxtiyor Sayfullayev (Alloh rahmat qilsin) boshchiligidagi tayyorgarlik boshlab yuborildi. Bu adabiy kecha Xalqlar do'stligi saroyida o'tkaziladigan bo'ldi. Unga Muhammad Yusufning she'rlarini qo'shiqqa aylantirgan rahmatli Muhriddin Xoliqov, G'iyos Boytoyev, Anvar Sanayev, Anvar G'aniyev va boshqa ko'plab taniqli xonandalarni taklif etdik. Afishalar chiqarildi, biletlar sotildi. Hammasi taxt. Ammo tadbirga yaqin qolganda bir muammo chiqib qoldi. G'iyos Boytoyev o'sha kunlarda “qattiq shamollab qolibdi”, degan xabar yetib keldi. Nima qilish kerak? Barchaning boshi qotgan. Agar u kelmasa hamma ish chippakka chiqishi mumkin. Chunki tomoshabinlarni tinchitish qiyin... Birdan ichimizdan kimdir: “G'iyos Boytoyevni kechaga taklif qilaveramiz. Muhammad akadan iltimos qilamiz, u sahnaga chiqib tomoshabinlarga vaziyatni tushuntiradi”, dedi. Bu taklif barchaga ma'qul tushdi.

Tadbir boshlandi. Muhammad aka yig'ilganlarga o'zi yozgan she'rlaridan bir qanchasini o'qib bera boshladi. Xonandalar esa qo'shiqlar aytib barchani xushnud etishardi.

Muhammad aka sahnaga galdagi chiqishida:

– Do'stlar! Ukamiz G'iyosjon betob bo'lib qolibdi. Mashhur xonandamiz bugun sizlarga qo'shiq ayta olmaydi. Lekin G'iyosjon shunday holatda ham bugun tashrif buyurgan. Hozir ukamizni sahnaga taklif etsak, – dedi. G'iyos Boytoyev bazo'r qadamlar bosib, sahnaga chiqib keldi. Muhammad aka:

– Do'stlar! Bir-birimizni tushunaylik, – deb unga guldasta berdilar. Tomoshabinlar qarsak chalib yuborishdi.

Shu zayil tadbir ko'tarinki ruhda davom etardi. Bir mahal Baxtiyor aka meni chaqirib: “Sen Muhammad Yusuf bilan yaxshisan. Unga borib ayt, tag'in “Cho'chqa”, degan she'rini o'qib qo'ymasin”, deb qoldi. Men u kishining iltimosini Muhammad akaga yetkazdim. Muhammad aka esa miyig'ida kulib qo'ydi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, boshlovchi Muhammad akani yana she'r o'qish uchun sahnaga taklif etdi. U kishi chiqib she'rlaridan o'qiy boshladi. Biroz sukut qilib: “Hurmatli tomoshabinlar! Hozir menga “Cho'chqa” she'rimni o'qib berishimni iltimos qilishdi”, deb he yo'q, be yo'q, she'r o'qiy boshladi:

*Cho'chqa bosib ketdi
mening bog'imni,
Biri-biridan oq, semiz cho'chqalar.
Non so'rab yalaydi
hammayog'imni,
Hech to'ydim demaydi
bu go'rso'xtalar.*

*Yerlarga yumalab
chingirar xurram,
Payhon qilib chaman-gulzorlarimni.
Buzadi, ter tukib men neki qursam,
Kezadi muqaddas mozorlarimni.*

*Qanday olishayin
cho'chqalar bilan,
Ularning ajdarlar bilan eti bir.
Ularning tusi bir bochkalar bilan,
Ularning kallasi bilan keti bir!..*

*Cho'chqa bosib ketdi
mening bog'imni,
Biri-biridan oq semiz cho'chqalar.
Ko'ppaklarday talab
hammayog'imni,
Hech to'ydim demaydi
bu go'rso'xtalar.*

*Bechora maxluq deb
rahmim kelgandi,
Yomonlik yo'q edi aslo dilimda.
Bog'imni-ku vayron
qilgandi, ammo
Xo'rillab gapir der mening tilimda.*

*Evoh, cho'chqalardan
bezorman bu kun,
Alam gulxanida yonmoqda ichim.*



Muhammad Yusuf yodi

*Olloh, olloh, o'zing bir chora qilgin,
Mening cho'chqalarga
yetmaydi kuchim.*

She'r tugadi. Birdan zalda go'yo bomba portlagandek bo'ldi. Tomoshabinlar guldarios qarsaklar bilan jasoratli shoirni kuzatib qo'yishdi. Bechora Baxtiyor akani kuzatsam, u terlab ketgan, tabiiy jingalak sochlari esa “go'yo tikka-tikka bo'lib ketgandek” edi.

Men Toshkent Davlat Madaniyat oliygohida ishlagan kezlarim Muhammad akaning “Qora qu-yosh” dostonini talabalar ijrosida sahnalashtirgan edim. Dostonda 1937 yillarda Stalin boshchiligidagi sho'ro hukumati tomonidan xalqqa qamoqlarda yetkazilgan yovuzlik va xunrezliklari haqida hikoya qilinadi. Dostonni dastlab qo'lga olganimda menga juda qattiq ta'sir qilgan edi. Chunki ota-bobolarimizning: “Shoxiga ursang tuyog'i zirqiraydi”, degan bir gapi bor. Dostonda yuz bergan voqealar va ko'rgiliklar bizning oilani ham chetlab o'tmagan. Hozir bular haqida og'iz ochsang, ba'zi “tanasi boshqa dard bilmas” lar: “Ha, endi o'sha vaqtlarda shunday kunlar ham bo'lgan”, deb parvoyi palak holda munosabat bildirib qo'yadilar. Lekin Muhammad aka o'sha yillarni aynan ko'rmagan bo'lsa-da, juda ta'sirli yozilgani she'r ruhida aks etib turibdi. Men mana shu asarni yig'lab-yig'lab sahnalashtirganman. Hatto dostonni sahnalashtirish jara-yonida, ya'ni tayyorgarlik davrida ba'zi ijrochi (o'quvchi)larning ham ko'z yoshlari tiyilmagan edi...

Bizga eng ibratlisi, Muhammad akani ana shu tadbirga taklif qilganimizda, kamtarlik bilan bajonidil qadam ranjida qilgan edi. Ammo ba'zi “atoqli” shoirlarning asarini sahnalashtirganimizda taklifimizni yerda qoldirishgan. Muhammad akaning ko'zlari doim mungli yurardi. Unda bir sirli dard yashiringandek edi. U ana shu dardlarini o'z ijodida ifodalash uchun dunyoga kelgandek edi go'yo.

Muhammad aka qazo qilganida men “uzoq”da edim... Bugungi kunga kelib, xonadonimizning dardkash bir muxlisini oxirgi yo'lga kuzatishda ishtirok etolmaganimdan ming afsusdaman.

Sherkon Qodiriy

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTIDA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Mustaqilligimizning 34 yilligi hamda yangi o'quv yilining boshlanishi munosabati bilan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida "Talabalikka bag'ishlov" deb nomlangan konsert dasturi tashkil etildi.

Unda institut rahbariyati, professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlar, shuningdek, OAV vakillari ishtirok etdilar.

Dastlab, tadbirda O'zbekiston davlat madhiyasi yangradi.

Institut rektori, professor Nodirbek Sayfullaev barcha ishtirokchilarni eng ulug' va eng aziz bayram – mustaqilligimizning 34 yilligi hamda yangi o'quv yili bilan qizg'in qutlar ekan, joriy o'quv yili ko'tarinki kayfiyatda boshlanganini, shuningdek, Yangi O'zbekistonning jahondagi salobati-yu salohiyatiga monand yangi san'ati va madaniyatini yaratishga hissa qo'shish yosh iste'dod egalarini yetuk ijodkor sifatida tarbiyalash institutning provard maqsadi ekanligini alohida ta'kidladi.



Tadbir davomida yangi o'quv yilida qabul qilingan iqtidorli talabalar so'z olib, kasbiy (ijodiy) imtihonlar haqqoniy va shaffof tarzda olib borilgani, shuningdek, o'qish va ijod qilish uchun institutda yaratilgan barcha sharoitlardan minnatdor ekanliklarini to'liqlanib gapirdilar. Ushbu imkoniyatlar uchun institut rahbariyatiga minnatdorlik bildirdilar.

Tadbirning badiiy qismi institut ijodiy jamoasi tomonidan tayyorlangan dilrabo kuy-qo'shiq va sahna ko'rinishlari bilan davom ettirildi.

O'zDSMI matbuot xizmati

TURK TILIDA CHOP ETILGAN "ŞEVKET RAHMAN. SEÇME ŞIIRLER" ("SHAVKAT RAHMON. TANLANGAN SHE'RLAR") TARJIMA KITOBİ HAQIDA

Bugun, 2025 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining "Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika" oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori Xayrulla Hamidovning o'zbek xalqining ardoqli shoiri, mohir tarjimon – Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligiga bag'ishlab shoir qalamiga mansub saralangan she'rlarning turk tiliga tarjimalari "Şevket Rahman. Seçme Şiirler" ("Shavkat Rahmon. Tanlangan she'rlar") nomli alohida kitob holida nashr etildi.

Taniqli shoirimizning ellikka yaqin eng sara she'rlari, jumladan "Vatan", "Yosh o'zbek shoirlariga", Qodiriy va hozirgi yoshlar", "Qasam", "Ona Turkiston", "Baxtiyorlik" singari ijtimoiy hayot, vatanga muhabbat mavzuidagi, "Umr – qumsoat", "Yashamaslik uchun yuraksiz", "Ichindagi xoinni o'ldir...", "Abadiyday tuyuldi umrim", "Vaqt" kabi chuqur falsafiy mazmundagi she'rlari, "Savdogar va to'tiqush", "Ikki do'st", "G'oyib bo'lgan boshsiz" deb nomlangan she'riy rivoyatlari hamda Shavkat Rahmonning ispan tilidan tarjima qilib 1989 yil nashr ettirgan o'sha mashhur "Federiko Garsia Lorka. She'rlar va

doston. Eng qayg'uli shodlik" kitobiga yozgan "Muqaddima"ning turkcha tarjimasi o'rin olgan ushbu kitobga taniqli suxandon, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Muslimbek Yo'ldoshevning Shavkat Rahmon haqidagi



maqolasi va Turkiyaning Otaturk universiteti Turkiyot tadqiqotlari instituti direktori, Prof. Dr. Husain Boydemirning "So'nggi so'zi" ilova qilingan.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning xalqimizning ardoqli shoiri Shavkat Rahmonga bag'ishlab yozgan va Xayrulla Hamidov turkchaga o'giran mashhur "Lolaqizg'aldoq" she'rining ushbu kitobdan joy olgani alohida diqqatga sazovor.

"Şevket Rahman. Seçme Şiirler" ("Shavkat Rahmon. Tanlangan she'rlar") kitobiga TDSHU dotsenti, filologiya fanlari doktori Samida Mustafayeva va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dots. nti, filologiya fanlari nomzodi, Abdumurod Tilavovlar taqriz berganlar.

Qardosh turk tiliga qoyilmaqom qilib o'girilgan she'rlar so'nggi chorak asr mobaynida respublikamizda ko'p bora nashr etilgan va she'rsevar xalqimizning kitob javonlari, kutubxonalarimizdan munosib o'rin olgan. Endi ana shu ma'naviy boylikdan dastlab turk she'r ixlosmandlari, undan keyin dunyoning boshqa mamlakatlarida yashayotgan zamonaviy o'zbek she'riyati ixlosmandlarining ham bahramand bo'lishlarini istab ushbu xayrli ishga qo'l urilganini alohida ta'kidlash kerak.

Ushbu kitobning yana bir muhim jihati shundaki, uni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida badiiy tarjima bilan bog'liq darslarga xrestomatik o'quv adabiyoti sifatida joriy qilish, undan talaba va magistrantlarning badiiy tarjimalarni tahlil qilishlari, tanqidiy maqolalar yozishlari, she'riy tarjima murakkabliklari mavzuida dissertatsiyalar tayyorlashlari uchun zarur manba sifatida foydalanish mumkin.